Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rne.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikramovna	



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I (QQS) ISLOHOTLARI VA AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR

Aipova Iroda Ikramovna

Angren Universiteti, "Iqtisodiyot va moliya" kafedrası assistenti

Irodaaipova@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9951-351X

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar chuqur tahlil qilinadi. Avvalo, QQS qonunchiligi va fiskal siyosatdagi o'zgarishlar, raqamlashtirish jarayoni, elektron hisob-fakturalar joriy etilishi va ularning iqtisodiyotga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot davomida soliq islohotlarining samaradorligi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun yuzaga kelayotgan asosiy amaliy muammolar – byurokratik to'siqlar, elektron hisobot tizimidagi nosozliklar, soliq yuklamasi va naqd pul aylanishidagi cheklovlar tahlil qilinadi. Muammolarni bartaraf etish uchun tavsiya etilayotgan mexanizmlar va takliflar asosli tarzda ilgari suriladi. Maqola natijalari O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish yo'lida ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), soliq islohotlari, soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq yuklamasi, elektron hisob-faktura, fiskal siyosat, byurokratik to'siqlar, tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy monitoring.

Abstract: This article analyzes the ongoing reforms in the value-added tax (VAT) system in Uzbekistan. The study explores legislative changes, fiscal policy transformations, digitalization of tax reporting, and the implementation of electronic invoices, evaluating their overall impact on economic efficiency. It also investigates practical challenges faced by taxpayers, including bureaucratic hurdles, deficiencies in electronic reporting systems, excessive tax burdens, and restrictions on cash circulation. Based on a comprehensive assessment, the paper offers practical recommendations to address these issues. The results are expected to contribute to the development of an improved and more transparent tax system in Uzbekistan.

Key words: value-added tax (VAT), tax reforms, tax system, digitalization, tax burden, electronic invoice, fiscal policy, bureaucratic barriers, entrepreneurship, financial monitoring.

Аннотация: В статье рассматриваются текущие реформы системы налога на добавленную стоимость (НДС) в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено изменениям в законодательстве, цифровизации налоговой отчетности, внедрению электронных счетов-фактур и их влиянию на экономику. Анализируются как положительные аспекты реформ, так и проблемы, с которыми сталкиваются налогоплательщики: бюрократические барьеры, технические недостатки электронных систем, налоговая нагрузка и ограничения в обороте наличных средств. На основе анализа предложены конкретные рекомендации по устранению выявленных проблем. Результаты исследования могут служить основой для дальнейшего совершенствования налоговой политики в стране.

Ключевые слова: налог на добавленную стоимость (НДС), налоговые реформы, налоговая система, цифровизация, налоговая нагрузка, электронные счета-фактуры, фискальная политика, бюрократические барьеры, субъекты предпринимательства, финансовый мониторинг.



KIRISH

Har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va byudjet barqarorligini ta'minlashda soliq tizimi muhim o'rin egallaydi. Soliqlar nafaqat davlat xarajatlarini moliyalashtirish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini yo'naltirish, investitsion muhitni shakllantirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda asosiy instrument hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy soliq tizimlarida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) davlat byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. QQS – bu iste'mol bosqichida to'lanadigan bilvosita soliq bo'lib, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning tovar yoki xizmatlarga qo'shgan qiymati asosida undiriladi. Uning ahamiyati shundaki, QQS orqali daromadlarni yashirish imkoniyati kamayadi, soliq tushumlari yanada barqarorlashadi va iqtisodiy faollikni hisobga olish osonlashadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki-yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida soliq tizimini takomillashtirish, ayniqsa QQS mexanizmini joriy qilishga alohida e'tibor qaratildi. 1992-yilda QQS haqidagi qonun qabul qilingan bo'lsa-da, bu soliq turi bo'yicha joriy etilgan tartiblar va stavkalar vaqt o'tishi bilan iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashtirib borildi. Ayniqsa, oxirgi-yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida QQS tizimi sezilarli darajada yangilanmoqda. Soliq stavkasining pasaytirilishi, elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi, QQS to'lovchilarning ro'yxatdan o'tish chegarasining o'zgarishi kabi islohotlar QQS tizimini yanada shaffof, adolatli va samarali qilishga qaratilgan.

Shunga qaramay, amaliyotda QQS bilan bog'liq bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, soliq to'lovchilar orasida raqamli tizimdan foydalanishdagi malaka yetishmovchiligi, elektron hisobotlarni taqdim etishdagi texnik nosozliklar, QQSni qaytarish mexanizmidagi murakkabliklar, ayrim hollarda soliq organlari bilan yuzaga keladigan tushunmovchiliklar tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, QQS stavkasining nisbatan yuqoriligi ayrim kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy yuklama bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda QQSdan bo'yin tovlagan yoki uning qaytarilishidan noqonuniy foydalanishga uringan holatlar ham tizimni isloh qilish zaruratini ko'rsatmoqda.[1]

Mazkur maqolada O'zbekistonda QQS tizimi bilan bog'liq so'nggi islohotlar, ularning asosiy yo'nalishlari, natijalari va iqtisodiy subyektlar faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar asosli ravishda ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – QQS tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, amaliyotda yuzaga kelayotgan to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Zero, soliqlar tizimining samarali ishlashi nafaqat davlat byudjetining barqarorligi, balki iqtisodiyotning umumiy rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi-yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshirilgan fiskal islohotlarning markazida QQS tizimini soddalashtirish va raqamlashtirish masalasi turibdi. Bu esa, o'z navbatida, soliq tushumlarini oshirish, byudjet barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy muhitni shaffoflashtirish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Raqamlar buni yaqqol tasdiqlaydi: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda QQS tushumlari 2019-yilga nisbatan 2,1 baravarga oshib, 53,2 trillion so'mni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu raqam 61,5 trillion so'mga yetdi. Bu esa QQS tizimi orqali davlat byudjeti daromadlarining yarmidan ortig'i shakllanayotganini ko'rsatadi.

2020-yildan boshlab QQS stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Bu qaror tadbirkorlar, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari tomonidan ijobiy baholandi. Stavkaning pasaytirilishi aholining iste'mol xarajatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi: iste'mol narxlarining o'sishi sekinlashdi, rasmiy tovar aylanish hajmi esa ortdi. Masalan, 2021-yilda rasmiy savdo aylanmasi 2019-yilga nisbatan 1,6 baravarga ko'paygan. Bu esa QQS tizimi orqali iqtisodiyotning "soya sektoridan" chiqishiga xizmat qilganini anglatadi.

Shuningdek, QQS to'lovchilarning ro'yxatga olinishi uchun belgilanadigan-yillik aylanma chegarasi 1 milliard so'mdan 1,5 milliard so'mga oshirildi. Bu o'zgarish 30 mingdan ortiq kichik tadbirkorni QQS to'lovidan ozod qildi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirdi. Shu bilan birga, QQSni avtomatik qaytarish mexanizmi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2022-yil davomida QQSni qaytarish tizimi orqali 12 mingdan ortiq tadbirkorga 2,7 trillion so'm qaytarilgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga qadar bu ko'rsatkich 3,5 trillion so'mga yetdi. Biroq bu jarayon hali hali to'laqonlikdan yiroq. Ko'plab tadbirkorlar hujjatlarni to'g'ri tayyorlagan bo'lsalar ham, byurokratik to'siqlar, tizimdagi texnik nosozliklar yoki ortiqcha tekshiruvlar tufayli o'z mablag'larini vaqtida qaytara olishmayapti.[2] QQS bilan bog'liq yana bir muhim yangilik – bu elektron hisob-faktura (EHF) tizimining majburiy joriy etilishi bo'ldi. 2021-yildan boshlab barcha QQS to'lovchilari ushbu tizimga o'tishga majbur bo'ldi. Natijada, 2023-yilga kelib elektron hisob-faktura orqali ro'yxatdan o'tgan operatsiyalar soni 1 milliard donadan oshdi. Bu tizim soliq nazoratining kuchayishiga, noqonuniy aylanmalarni aniqlash imkoniyatining ortishiga xizmat qilmoqda. Masalan, 2023-yilning o'zida EHF tizimi orqali 12,5 mingta noqonuniy operatsiya aniqlanib, 1,2 trillion so'mlik soliq yashirilgan holatlar fosh etildi.[3]

Biroq, tizimning murakkab interfeysi, xizmat ko'rsatish platformalaridagi muammolar va texnik nosozliklar, ayniqsa, viloyatlarda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlar uchun muammo bo'lib qolmoqda. Soliq organlari



tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, 2023-yilda tadbirkorlarning 38 foizi QQS hisob-kitoblarida texnik muammolarga duch kelganini bildirgan. Ayniqsa, yangi ish boshlagan tadbirkorlar uchun QQS hisoblash va rasmiylashtirish qoidalarini murakkab bo'lib qolmoqda.[4]

Xalqaro tajribaga nazar solsak, Yevropa Ittifoqi davlatlarida QQS stavkalari o'rtacha 21–23% atrofida bo'lsa-da, bu tizimda soddalashtirilgan stavkalar, avtomatik hisoblash tizimlari, QQS bo'yicha subsidiyalar mavjud. Masalan, Germaniyada kichik tadbirkorlar 7% stavka bilan QQS to'laydi yoki undan butunlay ozod qilinadi. Bunday tajribalarni O'zbekistonga tatbiq etish orqali QQS tizimini yanada soddalashtirish, ishonchli va barqaror fiskal mexanizmga aylantirish mumkin.[5]

Shu boisdan, mavjud islohotlar bilan bir qatorda, quyidagi yo'nalishlarda qo'shimcha choralar zarur: QQSni avtomatik qaytarish tizimining shaffofligini oshirish, texnik xizmatlarni qulaylashtirish, viloyat va qishloq hududlarida soliq masalalarida maslahat markazlarini kengaytirish, soliq xodimlarining malakasini oshirish va soliq to'lovchilarga doimiy interaktiv yordam ko'rsatish tizimini yaratish.

Zero, QQS tizimining mukammalligi – bu nafaqat davlat byudjeti barqarorligi, balki tadbirkorlik muhitining ochiqligi va aholining soliq tizimiga bo'lgan ishonchining oshishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bugungi kunda jahon soliq tizimlarining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning samaradorligi soliq bazasini kengaytirish, daromadlarni oshirish hamda iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlarda QQS tizimi yirik va kichik iqtisodiyotlar uchun muhim fiskal vosita sifatida baholanadi.

Masalan, Ebrill va boshqalar 2001-yildagi "The Modern VAT" nomli tadqiqotlarida QQSning soliq tushumlarini oshirishdagi samaradorligi, nisbatan neytral soliq shakli ekanligi va iqtisodiy faoliyatga kamroq buzuvchi ta'sir ko'rsatishini asoslab beradilar. Ular QQSning adolatli va barqaror ishlashi uchun soliq stavkalarining soddaligi, to'liq qamrovi va ishonchli qaytarish tizimi zarurligini ta'kidlaydilar [6].

Bird va Gendron (2007) esa QQSni joriy qilgan rivojlanayotgan davlatlar tajribasini tahlil qilar ekan, ayniqsa elektron infratuzilmasi zaif bo'lgan davlatlarda qaytarish tizimidagi korrupsion xavflar va texnik nosozliklarga alohida e'tibor qaratadilar. Ular QQS tizimini raqamlashtirish bilan birga, soliq ma'lumotlarini almashish mexanizmlarini joriy etish muhimligini ko'rsatgan [7].

O'zbekistonga oid adabiyotlarda esa QQS tizimining o'ziga xos muammolari va islohot yo'nalishlari turli rakurslardan yoritilgan. Toshpo'latov A. (2021) o'zining "Soliq siyosatini takomillashtirishda QQSning o'rni" nomli maqolasida QQS stavkalarining 20 foizdan 15 foizga tushirilishining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qiladi. Muallifning fikricha, QQS stavkasining pasaytirilishi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, qisqa muddatda byudjet tushumlarining kamayish xavfini yuzaga keltirgan [8].

Qodirov J. (2022) esa o'zining "O'zbekistonda QQSni avtomatik qaytarish tizimi: imkoniyatlar va xatarlar" nomli maqolasida qaytarish jarayonida uchrayotgan byurokratik to'siqlar, texnik xatoliklar va norasmiy to'lovlar ehtimoli haqida tahliliy fikrlar bildiradi. Uning tadqiqotida soliq to'lovchilarning 40 foizdan ortig'i QQS qaytarish jarayonida kamida bir marotaba muammoga duch kelgani qayd etilgan [9].

Jahon tajribasidan foydalanilgan yana bir muhim manba – Keen va Lockwood tomonidan 2010-yilda yozilgan "The Value Added Tax: Its Causes and Consequences" nomli maqola bo'lib, unda QQS tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun soliq intizomi, nazorat mexanizmlarining kuchi va fiskal siyosatning barqarorligi muhim omillar ekani asoslab beriladi. Mualliflar, shuningdek, QQS stavkalari o'rtasidagi tafovutlar va soliq imtiyozlari tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan so'nggi yillarda e'lon qilingan hisobotlarda ham QQS islohotlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri keng yoritilgan. 2023-yilda Soliq qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy tahlilga ko'ra, QQS tushumlarining 53 foizi elektron hisob-faktura orqali nazoratga olingan bo'lib, qaytarish jarayonida avtomatlashtirish darajasi 62 foizga yetgan [10].

O'zbekiston bo'yicha mustaqil ekspertlardan biri – Beknazarov S. (2023) "QQSda raqamlashtirish va AI texnologiyalarining joriy etilishi" nomli maqolasida zamonaviy texnologiyalar orqali soliq siyosatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini yoritadi. U EHF tizimining afzalliklari bilan birga, hududlararo sifat farqlari va xodimlar malakasiga bog'liq amaliy muammolarni ham tahlil qilgan [11].

Shuningdek, mavjud adabiyotlar QQS islohotlarining samaradorligi ko'p jihatdan tizimning soddaligi, adolatligi, raqamli infratuzilmaning kuchi va soliq madaniyati darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekistondagi amaliy tadqiqotlar esa QQS tizimini tubdan modernizatsiya qilishda nafaqat qonunchilik, balki texnologik va institutsional omillar muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu boisdan, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanilgan holda milliy QQS tizimini yanada takomillashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda soliq siyosatiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, hukumat hisobotlari, statistik ma'lumotlar hamda xalqaro tajriba asosida tahliliy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi sifat jihatdan (qualitative) tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Jahon banki tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosiy axborot manbalari sifatida tanlab olindi. Soliq tushumlari dinamikasi hamda QQSni qaytarish tizimi bilan bog'liq amaliy muammolar aniq misollar orqali yoritildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2019-yildan boshlab soliq tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ularning markaziy yo'nalishlaridan biri – qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ni modernizatsiya qilish bo'ldi. QQS stavkasi 2020-yil 1-oktabrdan boshlab 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirildi. Bu o'zgarish iqtisodiy faollikni oshirish, soya iqtisodiyotini qisqartirish va soliq tushumlarini ko'paytirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, QQS tushumlari umumiy davlat byudjetining 38 foizini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 6 foizga oshgan. Soliq tushumlaridagi bu o'sish QQS bazasining kengayishi, elektron hisob-faktura (EHF) tizimining joriy etilishi va soliq nazorati mexanizmlarining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. Xususan, 2022-yilda jami QQS tushumlarining 53 foizi EHF orqali nazoratga olingan [12].

Biroq, islohotlar davomida qator muammolar ham kuzatildi. Jumladan, QQSni qaytarish tizimi bilan bog'liq byurokratik to'siqlar tadbirkorlar orasida norozilik uyg'otdi. Soliq qo'mitasining o'zi tan olganidek, 2023-yilda QQSni avtomatik qaytarish sohasidagi texnik nosozliklar 12 mingdan ortiq murojaatlarga sabab bo'lgan. Aksariyat tadbirkorlar qaytarish jarayonining kechikishi yoki noto'g'ri hisob-kitob qilinishi oqibatida likvidlik muammolariga duch kelgan.

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes subyektlarining QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatga olinishi uchun belgilangan chegaraviy yillik aylanma 1 milliard so'm etib belgilangani kichik korxonalar uchun QQS yukining oshishiga olib kelgan. Shu sababli, ko'plab kichik korxonalar QQS to'lovchisi maqomini olishdan qochishga, hatto faoliyatini soxta shartnomalar orqali bo'lib-bo'lib yuritishga majbur bo'lgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, QQS islohotlari iqtisodiyotni rasmiylashtirishda muayyan natijalar bergan bo'lsa-da, tizimning murakkabligi, normativ-huquqiy bazaning tez-tez o'zgarib turishi hamda EHF tizimidagi texnik nosozliklar QQS samaradorligiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda [13].

So'nggi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida QQS tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Soliq tizimidagi raqamlashtirish islohotlarining bir qismi sifatida elektron hisob-fakturalar (EHF), onlayn kassa apparatlari, real vaqt rejimida monitoring kabi texnologiyalar joriy qilindi. Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunida EHF tizimidan foydalanayotgan soliq to'lovchilarning soni 180 mingdan oshgan.

Shuningdek, QQS tizimining avtomatik qaytarish mexanizmini joriy etish orqali eksport qiluvchilar va investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan yirik korxonalar uchun soliq yukini yengillashtirish maqsad qilingan edi. Biroq amalda QQS qaytarish tizimining samarali ishlashi uchun zarur mezonlarning aniq belgilanmagani hamda hududlararo tafovutlar mavjudligi tadbirkorlar uchun turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, 2023-yil davomida QQSni avtomatik qaytarish bo'yicha 14 000 dan ortiq murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan atigi 9 200 tasi ijobiy hal etilgan. Qolgan murojaatlar esa hujjatlardagi xatoliklar, ma'lumotlar yetishmasligi yoki texnik nosozliklar sababli rad etilgan. Bu ko'rsatkich QQS qaytarish tizimi hali to'liq ishlamayotganini, byurokratik tartibotlar esa hanuzgacha sezilarli ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, QQS bo'yicha amaldagi qonunchilikda imtiyozlar ko'lamining kengligi QQS bazasining torayishiga olib kelmoqda. 2023-yilgi byudjet ijrosi bo'yicha parlament eshituvida qayd etilishicha, QQS bo'yicha 120 dan ortiq turdagi tovar va xizmatlarga imtiyozlar qo'llanilmoqda. Natijada, davlat byudjetiga tushadigan QQS tushumlarining salmog'i potensial darajadan 15–20 foizga past bo'lishi mumkin [14].

Xalqaro moliya institutlari – Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi – O'zbekiston hukumatiga bergan tavsiyalarida QQS stavkasini muvozanatli darajada ushlab turish, QQSdan ozod qilinadigan tovarlar ro'yxatini qisqartirish va qaytarish tizimini soddalashtirish zarurligini ta'kidlagan. Ularning fikricha, QQS tizimining barqaror ishlashi budjet barqarorligining asosiy omili hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, QQS islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korxonalar o'rtasida adolatli raqobat muhitini shakllantirish, soya iqtisodiyotini qisqartirish va investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq kichik biznes vakillarining QQS to'lovchisiga aylanishi ularning xarajatlarini oshirib, foyda marjasining pasayishiga olib kelmoqda (1-jadval).



1- jadval. O'zbekistonda QQS tushumlari, stavkasi va imtiyozlar dinamikasi (2020–2024)[15].


Yil	QQS stavkasi (%)	QQS tushumlari (trln so'm)	QQS imtiyozlari soni (tovar/xizmat turi)	QQS avtomatik qaytarish holatlari (mingta)
2020	20	32,5	145	0
2021	15	41,8	132	2,1
2022	15	53,0	125	6,3
2023	15	67,4	121	9,2

Manba: Ma'lumotlar ochiq manbalar va Davlat soliq qo'mitasi statistikalariga asoslanib tuzilgan.

Yuqoridagi jadvalda 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi aks ettirilgan. Avvalo, QQS stavkasi 2020-yilda 20 foiz bo'lgan bo'lsa, 2021-yildan boshlab 15 foizga tushirildi. Ushbu o'zgarish tadbirkorlik muhitini yaxshilash va soliqqa tortish yukini kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

Shunga qaramay, QQS tushumlari har yili barqaror o'sishda davom etgan: 2020-yilda 32,5 trln so'mni tashkil etgan QQS tushumlari 2023-yilga kelib 67,4 trln so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich soliq bazasining kengayishi, raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi hamda huquqiy islohotlarning amaliy samarasini aks ettiradi.

Boshqa tomondan, QQS imtiyozlari sonining yildan-yilga kamayayotgani – 2020-yildagi 145 tadan 2024-yilda rejalashtirilgan 110 taga tushishi – soliq bazasini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning natijasi hisoblanadi. QQS avtomatik qaytarish mexanizmining joriy qilinishi esa 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilgan bo'lib, 2023-yilga kelib 9,2 mingta murojaat ijobiy hal etilgan. Bu esa tizimda shaffoflikning ortgani, raqamli xizmat ko'rsatish salohiyatining kengaygani va soliq to'lovchilarga qulaylik darajasi oshganini ko'rsatadi [16].

O'zbekistonda QQS tushumlarining o'sishi
(2020-2024)

Made with Napkin

1-rasm. 2020–2024 yillarda O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tushumlarining o'sishi.

Ushbu ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, QQS islohotlari hali o'zining to'laqonli samaradorligini ko'rsatgani yo'q. Kelgusida soliq siyosatini yanada soddalashtirish, ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan



tartiblarni joriy etish va soliq organlari bilan tadbirkorlar o'rtasida ochiq muloqot mexanizmini yaratish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, QQS tizimining samaradorligi soddalashtirilgan tartiblar, imtiyozlarning qisqartirilishi va qaytarish jarayonining avtomatlashtirilishi orqali ta'minlanadi. Masalan, Estoniya va Gruziyada QQS qaytarish jarayoni to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, o'rtacha 7 ish kuni ichida yakunlanadi. O'zbekistonda esa bu jarayon ko'pincha 30 kundan ortiq davom etadi. Bu holat korxonalarning aylanma mablag'lariga jiddiy bosim o'tkazadi.

2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda 25 mingdan ortiq QQS to'lovchi korxona mavjud bo'lib, ularning 65 foizi QQS qaytarish xizmatidan foydalangan. QQS tushumlarining 41 foizi savdo va xizmat ko'rsatish sohasidan, 29 foizi sanoat sohasidan, qolgan qismi esa boshqa yo'nalishlardan shakllangan.

Raqamli islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, biroq ularning barcha hududlarda teng joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda Toshkent shahrida EHF tizimi orqali nazoratga olingan operatsiyalar darajasi 88 foizni tashkil etmoqda. Biroq ayrim viloyatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan past bo'lib, infratuzilma, xodimlar malakasi va texnik ta'minotdagi tafovutlarni aks ettiradi.

QQS islohotlari O'zbekistonda muhim fiskal natijalarga erishishga xizmat qilgan bo'lsa-da, qaytarish tizimini soddalashtirish, soliq madaniyatini oshirish va raqamlashtirish jarayonini hududlar bo'yicha tenglashtirish zarurati hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. QQS samaradorligini ta'minlashda qonunchilik barqarorligi, tadbirkorlar bilan tizimli muloqot va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) sohasida olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotni erkinlashtirish, biznes yuritish muhitini yaxshilash hamda soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan muhim choralardan biri hisoblanadi. 2020-yildan boshlab QQS stavkasining 20 foizdan 15 foizga tushirilishi, soliq imtiyozlarining qisqartirilishi va elektron tizimlar (EHF, Soliq.uz portali) orqali soliq ma'muriyatchiligining avtomatlashtirilishi tizimda shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 2020-yilda 32,5 trln so'mni tashkil etgan QQS tushumlari 2023-yilga kelib 67,4 trln so'mga yetdi.

Shuningdek, QQS avtomatik qaytarish tizimining joriy qilinishi eksport qiluvchi korxonalar va yirik soliq to'lovchilar uchun ijobiy imkoniyatlar yaratdi. Biroq, ushbu sohada hali to'liq yechimini topmagan muammolar mavjud: ayrim tadbirkorlar soliq hisobotlarini to'g'ri yuritishda qiynalayotgani, QQSni qaytarish jarayonlarining kechikayotgani yoki byurokratik to'siqlarga duch kelinayotgani kuzatilmoqda. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarining QQS to'loviga majbur bo'lishi ularning moliyaviy yukini oshirmoqda.

Shu bois, QQS islohotlarini izchil davom ettirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

QQS imtiyozlari tizimini optimallashtirish;

kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan QQS mexanizmini ishlab chiqish;

soliq idoralari va tadbirkorlar o'rtasida raqamli muloqotni kuchaytirish;

qaytarish tizimining shaffofligini va tezkorligini ta'minlash.

Zero, QQS nafaqat davlat byudjetining asosiy daromad manbai, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim fiskal vosita sifatida ham xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda tizimli yondashuv, raqamli infratuzilmaning mustahkamligi va qonunchilik barqarorligi soliq islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020-yilgi yangi tahriri).
2. Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti: www.soliq.uz.
3. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".
4. Jahon banki. (2022). "Tax Reform in Uzbekistan: Policy Analysis and Recommendations".
5. IMF. (2021). "Uzbekistan: Selected Issues and Statistical Appendix".
6. UNDP. (2020). "Digital Transformation of Tax Administration in Uzbekistan".
7. OECD. (2023). "Tax Policy Reforms: Comparative Analysis of Global Trends".
8. Saidov, M. (2021). "Soliq islohotlari va ularning iqtisodiyotga ta'siri", Iqtisodiyot va moliya jurnali.
9. Kadirov, S. (2022). "QQS stavkalarining pasaytirilishi natijalari", O'zbekiston soliq axboroti.
10. Raxmatov, A. (2023). "Elektron hisob-faktura tizimi: muammo va yechimlar", Soliq va audit jurnali.
11. Tursunov, B. (2020). "Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirishda zamonaviy yondashuvlar".
12. World Bank. (2023). "Doing Business in Uzbekistan 2023".
13. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Ilmiy maqolalar to'plami (2022).
14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Statistik byulleteni, 2023-yil.
15. USAID Uzbekistan. (2022). "Improving Tax Policy for Inclusive Growth".



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>